BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

PO‘LATOV SARDORJON OTAJON O‘G‘LI

BOBOTOG‘ BOTANIK-GEOGRAFIK RAYONI FLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 581.9(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Po‘latov Sardorjon Otajon o‘g‘li
Bobotog‘ botanik-geografik rayoni florasi 3

Пулатов Сардоржон Отажон угли
Флора Бабатагского ботанико-географического района 21

Pulatov Sardorjon Otajon ugli
Flora of Babatag botanical-geographical region .....…..... 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works .....……..... 42

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

PO‘LATOV SARDORJON OTAJON O‘G‘LI

BOBOTOG‘ BOTANIK-GEOGRAFIK RAYONI FLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1245 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich** biologiya fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Ebel Aleksandr Leonovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Qodirov G‘ayrat O‘roqboyevich biologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “13” mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (85-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 23-fevral kuni tarqatiladi.
(2026-yil 23-fevraldagi 24-raqamli reestr bayonnomasi).



B.A. Adilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, b.f.d., katta ilmiy xodim

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab inson faoliyatining tabiiy ekotizimlarga ta’siri keskin kuchayib bormoqda. Mazkur holat biologik xilma-xillikning qisqarishiga, ayrim turlarning yo‘qolib ketishiga hamda butun ekotizimlarning barqarorligi buzilishiga olib kelmoqda. Floraning yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarini saqlash va muhofaza qilish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda tabiiy ekotizimlarning taksonomik xilma-xilligi haqida zamonaviy va ishonchli ma’lumotlarni to‘plash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ma’lumotlar tabiiy florani muntazam inventarizatsiya qilish orqali olinadi. O‘rganilayotgan hudud floralarining konspektlarini tuzish, endem va qisqarib borayotgan turlar holatini baholash hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan choralarni ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan davriy inventarizatsiya o‘simliklar xilma-xilligini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi fan sohasining muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasining eng kam o‘rganilgan hududlaridan biri bo‘lgan Panjoldi okrugi tarkibidagi Bobotog‘ botanik-geografik rayoni florasini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot hududi o‘ziga xos geografik joylashuvi hamda olajinsli tuproqlarning ustunligi bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar floristik tarkibning yuqori xilma-xilligini, xususan endemik va yo‘qolib borayotgan turlarning katta ulushini shakllantiradi. Shu bois hudud florasining taksonomik xilma-xilligini baholash, turlar tarqalishining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishda qator muhim huquqiy va institutsional asoslar shakllangan. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida[1]” gi Prezident Farmonida “....o‘zining geografik va iqlim xususiyatlariga ko‘ra, ayniqsa, adir va tog‘ ekotizimlarining nozikligi va suv resurslarining cheklanganligi sababli o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini saqlash va qayta tiklash” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-sonli “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini yuritish, ulardan foydalanish hajmlarini aniqlash va davlat kadastrini shakllantirish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, shuningdek 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019–2028-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohadagi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada amaliy va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib xizmat qiladi.

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rmon fondi yerlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida “Bobotog‘” milliy tabiat bog‘ining tashkil etilishi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Mazkur ish natijalari ushbu milliy bog‘ hududida biologik xilma-xillikni saqlash, monitoring qilish va boshqarishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi respublikada fan va texnika rivojlanishining ustuvor yo‘nalishi V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Tabiiy landshaftlarning floristik xilma-xilligini aniqlash, floraning zamonaviy konspektini tuzish, geofazoviy tahlil asosida turlarning geografik tarqalish xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek muhofazaga muhtoj turlarni aniqlash zamonaviy botanika fanining global miqyosdagi dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. Ushbu yo‘nalishda dunyo miqyosida keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, F.G. Conti va boshq. (2005), J. de L. Peter va boshq. (2011), K.O. Zvyagintseva (2015), A.P. Seregin va boshq. (2015), Sh. Ghazanfar (2016), A.N. Rao, V. Kumar (2018) ishlarida floristik boylikni tahlil qilish, xilma-xillikni baholash va turlar tarqalishini xaritalash masalalari har tomonlama yoritilgan. Markaziy Osiyoda tabiiy landshaftlar floristik xilma-xilligini fundamental o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar K.Z. Zokirov (1961), R.V. Kamelin (1971, 1990, 2021), N.X. Karmysheva (1982), V.P. Goloskokov (1984), A.M. Geldikhanov (1995), K.Sh. Tojibayev (2010) va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida o‘z aksini topgan. Milliy floralar bo‘yicha tuzilgan umumlashtirilgan ro‘yxatlar (Nikitin, Geldikhanov, 1987; Abdulina, 1991), shuningdek so‘nggi yillarda olib borilgan kadastr tadqiqotlari (Lazkov, Sultanova, 2014; Tojibayev va boshq., 2018–2020; Sitpaeva, 2023) tur tarkibini aniqlash va floristik xilma-xillikni tavsiflashda muhim hissa qo‘shgan. O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar K.Sh. Tojibayev (2002, 2010), A.R. Batoshov (2016), F.I. Karimov (2016), O.T. Turginov (2017), U.X. Qodirov (2020), X.R. Xoshimov (2023), R. O‘ralov (2025) va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Bobotog‘ tizmasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar son jihatidan kam bo‘lib, ular asosan tizimsiz xarakterga ega. Shunga qaramay, mazkur ishlar florani zamonaviy darajada o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Janubi-G‘arbiy Hisor, Hisor-Darvoz va Panjoldi okruglari florasining to‘r tizimli xaritalash (Surxondaryo viloyati qismi)” dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Bobotog‘ botanik-geografik rayonining O‘zbekiston qismi florasining tur tarkibini to‘r tizimli xaritalash asosida aniqlash va floraning keng ko‘lamli tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot hududining o‘simliklar xilma-xilligi bo‘yicha ma’lumotlarni jamlash uchun to‘r tizimli xaritalash asosida axborot bazasini shakllantirish hamda keng qamrovli gerbariy namunalarini o‘z ichiga olgan yangi dala tadqiqotlarini amalga oshirish;

floraning taksonomik xilma-xilligini aniqlash, uning konspektini tuzish va keng ko‘lamli tahlilini olib borish;

floraning to‘r tizimli xaritalash ma’lumotlarini tahlil qilish hamda turlar tarqalishining geofazoviy xususiyatlarini aniqlash;

kamyob va endem turlar tarkibini belgilash hamda ularni Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) mezonlari asosida baholash.

Tadqiqotning obyekti Panjoldi okrugi tarkibidagi Bobotog‘ botanik-geografik rayonining O‘zbekiston qismida tarqalgan yuksak o‘simliklar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Bobotog‘ botanik-geografik rayoni florasining konspekti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu dissertatsiya ishida asosan o‘simliklar xilma-xilligini to‘r tizimli xaritalash usullari marshrut va yarim statsionar floristik tadqiqot metodlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanildi. Tadqiqot hududi florasining xususiyatlarini aniqlashda taksonomik, xorologik, qiyosiy hamda biomorfologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Turlar kamyobligi IUCN tavsiyalariga muvofiq baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Dala tadqiqotlari jarayonida, mamlakat miqyosida o‘simliklar xilma-xilligini to‘r tizimli xaritalash bo‘yicha keng qamrovli izlanishlar hamda “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashrlarini tayyorlash bilan uyg‘un holda, fan uchun to‘rtta yangi tur aniqlanib, tavsiflandi; O‘zbekiston florasi uchun ham to‘rtta yangi tur topilgan.

To‘r tizimli xaritalash metodlari asosida ilk bor Bobotog‘ tizmasining O‘zbekiston qismi florasining taksonomik xilma-xilligi aniqlanib, u 72 oila, 389 turkum va 992 turni o‘z ichiga olishi ko‘rsatildi.

Ma’lumotlar bazasida 17 868 tadan ortiq yozuvni o‘z ichiga olgan geobog‘langan ma’lumotlar asosida turlar tarqalishining to‘r tizimli xarita indekslari bo‘yicha geografik xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat: Bobotog‘ tizmasining O‘zbekiston qismidan aniqlangan 72 oila, 389 turkum va 992 tur bo‘yicha taksonomik va geografik ma’lumotlar Surxondaryo viloyati yuksak o‘simliklar kadastrini tayyorlash jarayonida foydalanildi.

Bobotog‘ tizmasining O‘zbekiston qismidan 21 ta kamyob va yo‘qolib borayotgan tur aniqlanib, ular O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ning yangi nashriga kiritildi; ushbu turlardan 7 tasi bo‘yicha tur tavsiflari dissertatsiya muallifi tomonidan tayyorlandi.

Tadqiqot hududining endemik turlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritish uchun tavsiya etilgan taksonomik birliklarning kamyoblik maqomi IUCN Red Listning toifalari va mezonlariga muvofiq baholandi.

Dissertatsiya muallifi tomonidan yig‘ilgan 4510 ta gerbariy namunasi O‘zbekiston Milliy gerbariysi fondiga topshirilib, Bobotog‘ tizmasi bo‘yicha Markaziy Osiyo kolleksiyasini sezilarli darajada boyitdi.

Muallif tomonidan to‘plangan gerbariy namunalari, tarixiy gerbariy materiallarining geobog‘langan ma’lumotlari, shuningdek dala floristik qaydnomalari Markaziy Osiyo o‘simliklari uchun mo‘ljallangan Grid Mapping of Central Asia Plants (www.gmoca.org) mintaqaviy platformasi hamda Global Biodiversity Information Facility (www.gbif.org) xalqaro platformasini to‘ldirishda qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagi holatlar bilan tasdiqlanadi: olib borilgan floristik ma’lumotlar tahlili hududiy floralarni to‘r tizimli xaritalash asosida o‘rganish bo‘yicha zamonaviy ilmiy yondashuv hamda taksonomik va biogeografik tadqiqotlarda qabul qilingan metodikalarga to‘liq mos keladi;

asosiy natijalar respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda taqdim etilib, muhokama qilingan bo‘lib, bu ularning ekspert tomonidan baholanishi va chiqarilgan xulosalarning tasdiqlanishiga xizmat qildi;

tadqiqot materiallarining asosiy qismi yetakchi ilmiy jurnallarda chop etilgan bo‘lib, bu ularning taqrizdan o‘tganini va professional ilmiy hamjamiyat tomonidan e’tirof etilganini ko‘rsatadi;

geobog‘langan ma’lumotlarning keng bazasi mintaqaviy Grid Mapping of Central Asia Plants (GMOCA, www.gmoca.org) va global Global Biodiversity Information Facility (GBIF, www.gbif.org) bioxilma-xillik platformalariga integratsiya qilingan bo‘lib, bu ma’lumotlarning qo‘shimcha tekshirilishi, ochiqligi va keyingi foydalanish hamda qayta tekshirish imkoniyatini ta’minlaydi;

dala tadqiqotlari jarayonida yig‘ilgan keng qamrovli gerbariy materiallar O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondiga topshirilgan bo‘lib, u Markaziy Osiyodagi yetakchi ilmiy markazlaridan biri hisoblanadi va materiallarning uzoq muddatli saqlanishi hamda ulardan foydalanish imkonini kafolatlaydi;

tadqiqot ishlari davlat ilmiy dasturlari doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, ularning bajarilishi jarayonida har bir bosqichda ichki va tashqi ekspertiza nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bobotog‘ botanik-geografik rayonining florasiga oid izohli konspekt tuzish, uni har tomonlama ilmiy tahlil qilish va floristik ma’lumotlarni raqamlashtirish ushbu tadqiqotning muhim yutuqlaridan biridir. To‘r tizimli xaritalash usulidan foydalanish taksonomik ma’lumotlarning ishonchliligini oshirib, o‘simlik turlarining geografik tarqalishini aniq belgilash imkonini berdi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston florasiga oid yangi turlar aniqlanib, Bobotog‘ endemik turlarining tarqalish holatini aks ettiruvchi ma’lumotlar bazasi yanada boyitildi.

Olingan natijalar, bir tomondan, Surxondaryo viloyati o‘simlik resurslaridan oqilona va barqaror foydalanish, ularni uzoq muddat monitoring qilish va samarali muhofaza tizimini shakllantirishga asos bo‘ladi. Ikkinchi tomondan, bu ma’lumotlar viloyatning davlat kadastri va tarmoq xaritasini tuzish, muhim botanik hududlarni kengaytirish hamda yangi qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, natijalar O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan turlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini to‘ldirish va yangilashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bobotog‘ botanik-geografik rayoni florasini o‘rganish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

Bobotog‘ botanik-geografik rayonidan terilgan 330 turning 1900 ta gerbariy namunalari asosidagi ma’lumotlar bazasi Bioxilma-xillik to‘g‘risidagi global ma’lumotlar tizimiga (www.gbif.org, GBIF) kiritilgan (Global bioxilma-xillik ma’lumotlar bazasi sertifikati, www.gbif.org, 2025-yil 30-maydagi guvohnomasi). Natijada Bobotog‘ hududi florasining joylashuvi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosida foydalanish imkonini bergan.

Hudud florasidagi 725 turning 4510 ta gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariy fondiga taqdim etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 14-fevraldagi 4/1255-408-son ma’lumotnomasi). Bu esa TASHning O‘rta Osiyo bo‘limi kolleksiyasini sezilarli darajada boyitib, O‘zbekiston tog‘li hududlarining arid mintaqalari florasi xilma-xilligi haqidagi ilmiy tasavvurni kengaytirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 4 tasi xorijiy (Scopus va WOS bazalarida indekslangan) jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tasniflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi tadqiqot hududida olib borilgan botanika tadqiqotlarining qisqacha tarixiga, shuningdek dissertatsiya ishining obyekti va metodlariga bag‘ishlangan. Unda ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlarning asosiy natijalari xronologik ketma-ketlikda yoritilgan bo‘lib, dissertatsiyada qo‘llanilgan obyektlar va metodlar, jumladan florani o‘rganishda foydalanilgan taksonomik va geografik yondashuvlar, to‘r tizimli xaritalash hamda geofazoviy tahlil usullari batafsil bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Bobotog‘ botanik-geografik rayoni florasining izohli konspekti”** deb nomlangan ikkinchi bobida yangi floristik topilmalar hamda floraning izohli konspektini tuzish natijalari bayon etilgan.

Bobning birinchi bo‘limida fan uchun, O‘zbekiston florasi uchun yangi topilmalar va tadqiqot hududidagi bir qator turlarning yangi o‘sish joylari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

2019–2025 yillarda to‘r tizimli xaritalash asosida olib borilgan dala tadqiqotlari, shuningdek “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashrlarini tayyorlash loyihasi doirasida o‘tkazilgan izlanishlar natijasida fan uchun yangi bo‘lgan to‘rtta tur aniqlandi (*Allium sunhangii* F.O. Khass., Tojibayev & Yusupov; *Hedysarum sunhangii* Juramurodov & Tojibayev; *Iris chrysopetala* Sennikov, F.O. Khass. & Pulatov; *Fritillaria yakutii* Turginov & Tojibayev), shuningdek O‘zbekiston florasi uchun ilk bor qayd etilgan yana 4 tur (*Allium sulphureum* Vved., *Allium bucharicum* Regel, *Nepeta badachschanica* Kudrjasch. va *Astragalus tatjanae* Lincz.) aniqlangan. Bundan tashqari, dala tadqiqotlari hamda yirik gerbariy fondlarida saqlanayotgan materiallarni tahlil qilish jarayonida, asosan avtoxton xususiyatga ega bo‘lgan 17 tur uchun yangi o‘sish joylari aniqlangan. Ushbu turlar haqidagi batafsil ma’lumotlar dissertatsiya matnida keltirilgan.


Bobning ikkinchi bo‘limida 72 oila va 389 turkumga mansub 992 turni o‘z ichiga olgan floraning izohli konspekti keltirilgan. Konspektda oilalar ketma-ketligi ochiq urug‘lilar (Gymnosperms) uchun Christenhusz & al. (2011), gulli o‘simliklar (Angiosperms) uchun APG IV (2016) tizimlari asosida shakllantirilgan. Konspektda har bir tur uchun ilmiy va o‘zbekcha nomlari, hayotiy shakli, geografiyasi, ekologiyasi, xo‘jalikdagi ahamiyati va muhofaza qilinadigan turlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, har bir takson uchun to‘r tizimli xaritalash asosida tarqalish xaritalari tayyorlangan.

Dissertatsiyaning “**Bobotog‘ botanik-geografik rayoni florasining keng ko‘lamli tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida taksonomik, geografik, biomorfologik va qiyosiy tahlil natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobning birinchi bo‘limida floraning taksonomik tahlili natijalari bayon etilgan bo‘lib, undan avval tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Ushbu jarayon yangi dala materiallarini yig‘ishni, shuningdek mazkur tadqiqotlar boshlanishidan oldin to‘plangan, asosan gerbariy namunalarga asoslangan ma’lumotlarni tizimlashtirishni o‘z ichiga oldi. Olingan ma’lumotlar tadqiqot hududining har biri 5×5 km o‘lchamdagi 182 ta to‘r tizimli xarita indekslariga integratsiya qilindi. Aniqlanishicha, 1901–2019 yillar oralig‘ida turli kollektorlar tomonidan Bobotog‘ tizmasi hududida 55 oila, 223 turkumga mansub 437 turdan iborat 1180 ta gerbariy namunasi to‘plangan. Tarixiy ma’lumotlarning geobog‘lanishi natijalari ushbu yig‘malar to‘r tizimli xaritaning 102 ta indeksini qamrab olganini ko‘rsatdi, bu esa tadqiqot hududi umumiy maydonining 56,04% ini tashkil etadi. (1 A -rasm).

2019–2024-yillardagi dala ekspeditsiyalari davomida olingan ma’lumotlarning avval to‘plangan materiallar bilan birlashtirilishi natijasida jami 17 868 ta namuna (+16 688 namuna) aniqlangan bo‘lib, ular 72 oila (+17 oila), 389 turkum (+166 turkum) va 992 tur (+555 tur) ga mansubdir. Dala tadqiqotlari va yig‘ilgan gerbariy materiallari to‘r tizimli xaritada barcha 182 ta indeksni qamrab olgan (1B -rasm). Shu bilan birga, 54 turga mansub gerbariy namunalarida zarur taksonomik belgilar yetishmasligi sababli ularning aniq tur darajasini belgilash imkoni bo‘lmadi va ular “sp” sifatida qoldirildi. Olingan natijalar Bobotog‘ botanik-geografik rayoni

florasining taksonomik tarkibi va hududiy tarqalish darajasi sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi.



1-rasm. Bobotog‘ botanik-geografik rayoni florasining boshlang‘ich (A) va tadqiqot yakuniga ko‘ra (B) to‘r tizimli xaritasi (*species richness*).

Sporali o‘simliklar (Equisetidae, *Equisetaceae*) bitta turkum va bitta tur bilan ifodalanadi, ochiq urug‘li o‘simliklar esa (*Gnetidae*, *Ephedraceae*, *Cupressaceae*) ikki oila va ikki turkumga mansub bo‘lib, jami yetti turdan iborat bo‘lib, bu umumiy floristik tarkibning atigi 0,7% ini tashkil etadi. Yopiq urug‘li o‘simliklar (*Angiospermae*) flora asosini tashkil etib, 70 ta oila, 379 ta turkum va 982 ta turni qamrab oladi hamda umumiy turlar sonining 98,9% ini tashkil qiladi.

Bobotog‘ning O‘zbekiston qismi florasida yetakchi polimorf oilalar spektri Tog‘li O‘rta Osiyoning janubiy qismiga xos bo‘lgan tipik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu holat yetakchi oilalarning birinchi va ikkinchi uchliklari tarkibida yaqqol namoyon bo‘ladi (Kamelin, 1973; Xoxryakov, 2002). Birinchi uchlikka mansub Asteraceae (As), Fabaceae (Fa) va Poaceae (Po) oilalari turlar soni bo‘yicha o‘zaro sezilarli darajada farqlanadi, bunda ularning tur boyligi orasidagi tafovut 29–46 tur oralig‘ida o‘zgaradi. Keyingi uchlikni tashkil etuvchi Brassicaceae, Lamiaceae va Apiaceae oilalari esa, aksincha, turlar sonining bir-biriga yaqinligi bilan tavsiflanadi (mos ravishda 60, 50 va 46 tur). Shundan keyingi o‘rinlarni egallagan, turlar son jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lgan oilalar Bobotog‘ florasining geterogen xarakterini, ya’ni turli floristik elementlarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan murakkab tarkibini aks ettiradi. Xususan, Amaranthaceae oilasining yuqori ulushi (39 tur) hududda arid sharoitlar ta’sirini ko‘rsatsa, Amaryllidaceae (30 tur) ning sezilarli ishtiroki avtoxton floristik elementlar ulushining yuqoriligini ifodalaydi. Caryophyllaceae va Ranunculaceae oilalari (mos ravishda 36 va 27 tur) esa florada mo‘tadil shimoliy floristik komponentlarning hissasini aks ettiradi. Floraning antropogen transformatsiyalanganlik darajasi esa Boraginaceae va Polygonaceae oilalarida qayd etilgan adveniv turlarning salmoqli ulushi bilan namoyon bo‘ladi (1-jadval).

Yetakchi turkumlar spektri ham 13 ta turkum 224 ta turni birlashtiruvchi bilan ifodalanib, bu umumiy turlar sonining 22,6% ini tashkil etadi hamda asosan tadqiq etilayotgan hudud florasiga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarni aks ettirib, mahalliy floristik elementlarning yuqori rolini ta’kidlaydi. Bu holat yetakchi turkumlarning birinchi uchligi tarkibida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi:


1-jadval

Polimorf oila va turkumlarning spektri

Oila	Turkum	Tur	%	Turkum	Tur	%
Asteraceae	55	149	15.02	*Astragalus*	67	6.75
Fabaceae	20	120	12.09	*Allium*	30	3.02
Poaceae	48	86	8.66	*Cousinia*	19	1.92
Brassicaceae	33	60	6.04	*Artemisia*	19	1.92
Lamiaceae	17	50	5.04	*Gagea*	12	1.21
Apiaceae	23	46	4.63	*Haplophyllum*	12	1.21
Amaranthaceae	26	39	3.93	*Veronica*	10	1.01
Caryophyllaceae	13	36	3.62	*Ranunculus*	10	1.01
Boraginaceae	16	36	3.62	*Euphorbia*	9	0.91
Amaryllidaceae	1	30	3.02	*Carex*	9	0.91
Ranunculaceae	9	27	2.72	*Poa*	9	0.91
Polygonaceae	8	22	2.21	*Centaurea*	9	0.91
Rosaceae	7	21	2.11	*Eremurus*	9	0.91
Jami:	**276**	**722**	**72.71**	**Jami:**	**224**	**22.6**
Qolgan oilalar (59)	113	270	27.29	Qolgan turkumlar (376)	768	77.4
Umumiy soni	**389**	**992**	**100**	**Umumiy soni**	**992**	**100**

Astragalus turkumi eng ko‘p tur soni (67 tur) bilan yetakchi o‘rinni egallaydi. Undan keyingi o‘rinlarda joylashgan *Allium* (30 tur) va *Cousinia* (19 tur) turkumlari asosan Markaziy Osiyo hamda Eron–Turon floristik elementlari bilan ifodalanib, keng arealli taksonomik guruhlar ta’siri kuchayib borayotganiga qaramay, Bobotog‘ florasining avtoxton xarakterini yanada mustahkamlaydi. Keyingi o‘n turkum ichida faqat *Gagea* va *Haplophyllum* (har biri 12 tur), shuningdek *Eremurus* (9 tur) o‘zlarining tur tarkibi jihatidan birinchi guruhga yaqin bo‘lib, ular ham mintaqaviy elementlarning ustunligi bilan tavsiflanadi. Qolgan turkumlar – *Artemisia* (19 tur), *Veronica* va *Ranunculus* (har biri 10 tur), *Carex*, *Poa* hamda *Centaurea* (har biri 9 tur) – asosan keng tarqalgan turlar bilan ifodalanib, tadqiq etilayotgan hudud florasining shimoliy hamda janubiy mintaqalar bilan bo‘lgan floristik aloqalarini aks ettiradi.

Bobotog‘ florasida polimorf oilalarning turlar soni bo‘yicha real ustunligini aniqlash maqsadida fazoviy (Kernel Density Estimation, Convex Hull), ekologik-iqlimiy (Principal Component Analysis, Environmental Niche Breadth) hamda taksonomik (Shannon Diversity Index) tahlil usullarini o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan analitik yondashuv qo‘llanildi.




2-rasm. Polymorph Stability Index (PSI) asosida Bobotog‘ florasida polimorf floristik oilalarning fazoviy–ekologik–taksonomik barqarorlik darajasi

Olingan natijalar Asteraceae, Fabaceae va Poaceae oilalari fazoviy, ekologik hamda taksonomik ko‘rsatkichlar majmuasi bo‘yicha yetakchi ekanini ko‘rsatdi, bu esa Tog‘li O‘rta Osiyo florasiga xos bo‘lgan dominant oilalar spektri bilan to‘liq mos keladi (2-rasm).

Dissertatsiya ishining ikkinchi bo‘limi to‘r tizimli xarita indekslarida jamlangan geobog‘langan floristik ma’lumotlarning fazoviy taqsimlanishini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tahlil 17 868 ta geobog‘langan yozuvlar asosida amalga oshirilgan bo‘lib, ular 992 ta turning barchasini qamrab oladi. Ta’kidlash joizki, mazkur geobog‘langan ma’lumotlar majmuasi O‘zbekiston hududida o‘rganilgan floralar orasida eng to‘yinganlaridan biri hisoblanib, tadqiqot hududi doirasida batafsil geofazoviy tahlil o‘tkazish imkonini beradi.

Floraning fazoviy tuzilmasi turlar boyligi (*species richness*, SR) va yig‘malar zichligi (*collection density*, CD) ko‘rsatkichlari asosida baholandi. Ushbu yondashuv taksonomik xilma-xillikning hudud bo‘ylab taqsimlanishidagi asosiy fazoviy qonuniyatlarni aniqlash hamda hududning o‘rganilganlik darajasini xolis baholash imkonini berdi. Ko‘rsatilgan parametrlar asosida olingan geofazoviy tahlilning asosiy natijalari 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Turlar boyligi (A) va yig‘malar zichligi (B)

Turlar boyligini tahlil qilish natijalari Bobotog‘ tizmasining O‘zbekiston qismida o‘simliklar tarqalishi notekis xarakterga ega ekanini ko‘rsatdi hamda to‘r tizimli xarita indekslarini turlar soniga ko‘ra uchta asosiy guruhga ajratish imkonini berdi.

1. Turlar boyligi past bo‘lgan indekslar (10–20 tur) umumiy indekslar sonining 5,5% ini tashkil etib, asosan tadqiqot hududining qumli va arid tekislik qismlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu hududlar noqulay ekologik-iqlimiy sharoitlar bilan tavsiflanadi.

2. Turlar boyligi o‘rtacha bo‘lgan indekslar (21–100 tur) Bobotog‘ tizmasining O‘zbekiston qismiga mansub floraning asosiy qismini shakllantirib, jami indekslarning 77,5% ini qamrab oladi. Mazkur guruhning ustunligi, bir tomondan, o‘rtacha va yuqori floristik xilma-xillikka ega hududlarning keng tarqalganligini, ikkinchi tomondan esa ushbu dissertatsiya doirasida tadqiqot hududining yuqori darajada o‘rganilganligini ko‘rsatadi.

3. Juda yuqori turlar boyligiga ega bo‘lgan indekslar (101 tadan ortiq tur) 17% ulushni tashkil etib, floristik jihatdan eng to‘yingan maydonlar sifatida ajralib turadi. Ushbu indekslar doirasida turlar boyligining maksimal ko‘rsatkichlari (324 tur – S215 indeksi) hamda yig‘malar zichligining eng yuqori qiymatlari (767 ta namuna

– U214 indeksi) qayd etilgan bo‘lib, bu ularning Bobotog‘ florasining shakllanishi va saqlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

To‘r tizimli xaritalash natijasida olingan ma’lumotlar O‘zbekistonda ilk bor polimorf oilalar spektri ketma-ketligi asosida indekslarning to‘yinganlik darajasini aniqlash imkonini berdi. Ushbu maqsadda yuqorida ajratilgan uchta indekslar guruhi tahlil qilindi. 3-guruh tarkibiga kiruvchi 32 ta indeksning barchasida polimorf oilalarning birinchi uchligi – Asteraceae (As), Fabaceae (Fa) va Poaceae (Po) – to‘liq mos kelgani qayd etildi. 2-guruhga mansub 122 ta indeks ichida esa bunday holat faqat 34 ta indeksda (27,8%) aniqlanib, mazkur indekslarda turlar soni 70–100 tur oralig‘ida o‘zgaradi. Ushbu indekslar “to‘yingan indekslar” sifatida tavsiflandi. Qolgan indekslarda birinchi uchlik tarkibiga Brassicaceae, Lamiaceae, Apiaceae, Amaranthaceae yoki Boraginaceae oilalarining kirishi kuzatilib, bu holat floristik to‘yinganlik darajasining yetarli emasligi yoki mahalliy ekologik sharoitlarning ta’siri bilan izohlanadi. Olingan natijalar Janubiy O‘zbekistonning arid tog‘li hududlari sharoitida 5×5 km o‘lchamdagi indekslari uchun minimal to‘yinganlik chegarasi kamida 70–80 tur darajasidagi turlar boyligiga mos kelishini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bo‘limi tadqiqot hududi doirasida turli davrlarda to‘plangan floristik ma’lumotlar dinamikasini vaqt kesimida tahlil qilishga bag‘ishlangan. Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida foydalanilgan ilmiy ma’lumotlarning umumiy majmuasi (gerbariy materiallari, adabiy manbalar hamda dala tadqiqotlari natijalari) O‘zbekiston qismiga mansub Bobotog‘ florasini o‘rganishning asosiy bosqichlarini aks ettiruvchi to‘rtta xronologik davrni ajratish imkonini berdi. A (1940 yilgacha) – dastlabki floristik tadqiqotlar davri bo‘lib, ilk hujjatlashtirilgan yig‘malar bilan tavsiflanadi; B (1941–1993 yillar) – florani intensiv o‘rganish bosqichi bo‘lib, “O‘zbekiston florasi” (1941–1962) hamda “O‘rta Osiyo o‘simliklarini aniqlagichi” (1969–1993) asarlarini tayyorlash va nashr etish bilan bog‘liq; C (1994–2010 yillar) – floristik tadqiqotlar faolligining nisbatan pasayishi bilan tavsiflangan davr; D (2010 yildan hozirgi davrgacha) – zamonaviy bosqich bo‘lib, dala tadqiqotlarining faollashuvi, to‘r tizimli xaritalash usullarining joriy etilishi hamda “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashrini tayyorlash jarayonlari bilan tavsiflanadi (2-jadval).

2-jadval

Har bir vaqt davri bo‘yicha indekslar kesimida taksonomik birliklar soni va ularning uchrash darajasi

Davrlar	Oilalar soni	Turkumlar soni	Turlar soni	Geobog‘langan ma’lumotlar	Indekslarda uchrash soni (%)
A	51	180	307	607	78 (43%)
B	43	119	233	513	65 (36%)
C	44	149	247	746	38 (21%)
D	68	344	793	15906	179 (98%)

Ajratilgan har bir davr uchun to‘r tizimli xarita indekslari doirasida turlar xilma-xilligi va gerbariy yig‘malari zichligi ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Bu yondashuv hududning o‘rganilganlik darajasi dinamikasini miqdoriy baholash hamda floristik ma’lumotlarning makon–vaqt bo‘yicha to‘planish xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limi umumiy taksonomik xilma-xillikning turlar, turkumlar va oilalar darajalarida taqsimlanishini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Turlar, turkumlar va oilalar soni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik floristikaning asosiy fundamental qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Turli mintaqalarda va organizmlarning turli guruhlarida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar (Balmford va boshq., 1996; Gaston, 2000; Macheroum va boshq., 2021; Seregin, 2014) taksonomik ierarxiyaning turli darajalari o‘rtasida yuqori darajadagi korrelyatsiya mavjudligini tasdiqlaydi.

To‘plangan floristik ma’lumotlar majmuasi asosida Bobotog‘ning O‘zbekiston qismi florasida umumiy taksonomik xilma-xillikning turlar, turkumlar va oilalar darajalarida to‘r tizimli xaritaning 182 ta indeksi kesimida taqsimlanishi o‘rganildi.

Turlar va turkumlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Indekslar bo‘yicha turlar soni bilan turkumlar soni o‘rtasida yuqori darajadagi chiziqli bog‘liqlik aniqlandi. Mazkur bog‘liqlik $y = 0{,}4607x + 48{,}575$ regressiya tenglamasi bilan ifodalanadi (bu yerda x – turlar soni, y – turkumlar soni). Pirson korrelyatsiya koeffitsientining kvadrati $r^2 = 0{,}963$ ga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar o‘rtasida juda kuchli bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi (4A-rasm).


Turlar va oilalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Turlar soni bilan oilalar soni o‘rtasida ham ijobiy bog‘liqlik qayd etildi. Ushbu bog‘liqlik $y = 0{,}082x + 4{,}48$ regressiya tenglamasi bilan tavsiflanadi, bunda $r^2 = 0{,}746$ ni tashkil etadi. Mazkur chiziqli bog‘liqlik turlar va turkumlar o‘rtasidagi bog‘liqlikka nisbatan biroz sustroq ifodalangan (4B-rasm).

Turkumlar va oilalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik. Ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabat ham chiziqli xarakterga ega bo‘lib, $y = 0{,}317x + 1{,}88$ regressiya tenglamasi bilan ifodalanadi va $r^2 = 0{,}713$ ga teng (4C-rasm). Olingan natijalar yuqori taksonomik daraja oilalar – turkumlar sonining ortishi bilan mutanosib tarzda boyib borishini ko‘rsatadi, bu esa florani tashkil etuvchi taksonomik tuzilmaning tartibli va muvozanatli ekanligini aks ettiradi.

O‘rta Osiyo florasini to‘r tizimli xaritalash asosida o‘rganishga bag‘ishlangan floristik tadqiqotlarda (Qodirov, 2020; Abduraimov, 2021; Xoshimov, 2023) turlar, turkumlar va oilalar soni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar tahlil qilinmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotda olingan natijalar Vladimir viloyati florasi uchun aniqlangan qonuniyatlar bilan (Seregin, 2014) qiyoslandi.

Natijada aniqlanishicha, taksonomik darajalar o‘rtasidagi nisbatlar tadqiq etilayotgan hudud florasida ham deyarli to‘liq darajada takrorlanadi. Tabiiy-iqlimiy sharoitlar, geografik kenglikdagi joylashuvi hamda floristik shakllanish tarixi jihatidan sezilarli farqlarga qaramay, qiyoslanayotgan hududlar floralarida kuzatilgan bunday o‘xshashlik floraning strukturaviy tashkil etilishining universal xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Regressiya tenglamalari va determinatsiya koeffitsienti (r^2) qiymatlarining yuqori darajada mos kelishi Bobotog‘ florasining O‘zbekiston qismining taksonomik tuzilmasi, uning mintaqaviy floristik o‘ziga xosligidan qat’i nazar, florani tashkil etishning umumiy va barqaror qonuniyatlariga bo‘ysunishini tasdiqlaydi.



A Turlar va turkumlar B Turlar va oilalar C Turkumlar va oilalar

